Каримова Нуржахон Олим кизи	
O‘ZBEKISTON OLIY TA’LIM MUASSASALARIGA XORIJLIK TALABALARNI JALB ETISHDA YASHIL MARKETING STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH.....	1101
Sharopova Nafosat, Xolmamatov Diyorbek	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O‘RNI	1108
Kasimova Zilola G‘ulomiddin qizi	
JISMONIY TARBIYA VA SPORT MUASSASALARIDA MOLIVAVIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI.....	1116
Toshmurodov Abdurauf Ravshanovich	
АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ПУТИ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ НАЛОГООБЛОЖЕНИЯ ТОПЛИВНО-ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА УЗБЕКИСТАНА – 2025.....	1122
Ш.К.Жалилов	
“O‘ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNING O‘RNI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI”	1126
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
MAMLAKATDA INVESTITSIYA JARAYONLARINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	1130
Xusanov Durbek Nishanovich	
TURIZM XIZMATLARI TUSHUNCHASI VA ULARNI INNOVATSION TASHKIL ETISHNING IQTISODIY MOHIYATI.....	1138
Najmidinov Azizbek Bahrom o‘g‘li	



MINTAQAVIY IQTISODIYOTDA TURISTIK INFRATUZILMANI BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI.....	1143
Xalmirzayev Axmadjan Axunovich, Ro'zmatov Boburjon Zafarjon o'g'li, Shodiyeva Nafosatxon Hamza qizi	
O'ZBEKISTONDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINING HOLATI VA TENDENSIYALARI.....	1149
Ahmedov Shermuhammad Omonjon o'g'li	
MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1156
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1161
Adashev Azimjon Urinboyevich	
XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1165
Abdunazarova Dilshoda Akromovna	
INNOVATSION FAOLIYATNI BOSHQARISHDA BOSHQARUV HISOBİ AXBOROTINING AHAMIYATI	1170
Xushvaqtova Nozanin Nurbek qizi	
OLIY TA'LIM TIZIMIDA INTEGRATSIYA JARAYONLARINI AMALGA OSHIRISH SHAKLLARI VA ULARNING TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDAGI AHAMIYATI.....	1177
Ismoilova Feruza Kubaymurodovna	
EKOMARKETING STRATEGIYALARI ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH	1182
Qo'ziyev Jaloladdin Alisher o'g'li	
ENSURING INNOVATIVE ECONOMIC SECURITY IN THE KHOREZM REGION: WASTE RECYCLING AND CIRCULAR ECONOMY	1186
Madraximova Shohista Bahrom qizi	
KICHIK BIZNES FAOLIYATINI BAHOLASH ASOSIDA SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1191
Mavkulov Ravshan Nematjonovich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA ISLOM MOLIYASINI JORIY QILISHDA XORIJIY MAMLAKATLAR TAJIRIBASIDAN FOYDALANISH.....	1195
Sultonov Baxtiyor Baxodirovich	
MINTAQAVIY IMIJNI SHAKLLANTIRISHNING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	1201
Duschanov Alisher Sherzod o'g'li	
QISHLOQ XO'JALIGI KORXONALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI	1206
Opaev Bysen Aymanovich	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN KICHIK BIZNESNI INVESTITSION KREDITLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH.....	1212
Yuldashev Fozil Turapovich	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI SAMARALI RIVOJLANTIRISHNING XORIJ TAJIRIBASI.....	1218
M.M.Muminova	
ИНТЕГРАЦИОННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ ГОСУДАРСТВЕННОГО ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ОПЕРАТОРА И ПРЕДПРИЯТИЙ МЕСТНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	1223
Худаярова Мехрангиз Мурадовна	
TURIZMDA INDIVIDUALLASHTIRILGAN XIZMATLAR KONSEPSIYASI VA TAJRIBA TURIZMINING NAZARIY ASOSLARI.....	1230
Raxmatov Aziz Tolipovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGIDA YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA EKOLOGIK EKSTERNALIYALARNI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1235
Smaylova Zarafshan	
XALQARO STANDARTLARDA PRUDENSIAL NAZORAT: BAZEL QOIDALARI VA ULARNING AHAMIYATI	1239
Abdunazarov Dilshoda Akromovna	



METALLURGIYA SANOATIDA EKOLOGIK TOZA TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH: MAQSADGA MUVOFIQLIGI VA NATIJALARI	1244
Karimov Ma'ruf Ixtiyorovich	
HUDUDIIY IQTISODIIY O'SISH OMILLARINING EKONOMETRIK TAHLILI: SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA	1248
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Normurodov Asliddin Alijon o'g'li	
INDUSTRIAL RIVOJLANISHNING IQTISODIIY VA EKOLOGIK OQIBATLARI	1258
Ataniyazova M.B.	
OLIIY TA'LIM RAQOBATBARDOSHLIGINING TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDAGI ROLI	1263
Nishonov Dilshod Shamsidinovich	
СИСТЕМА ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ ЭЛЕМЕНТ ФОРМИРОВАНИЯ «ЗЕЛЕННОЙ» ЭКОНОМИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1269
Махмутходжаева Луиза Сайфулловна	
IQTISODIYOTDA "YASHIL" MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI	1274
Risqibekova Nozimaxon	



IQTISODIYOTDA “YASHIL” MOLIYALASHTIRISHNI RIVOJLANTIRISHNING XUSUSIYATLARI

Risqibekova Nozimaxon

TDIU, Moliya va moliyaviy texnologiyalar
kafedrası assistenti

rahimovanozimaxon83@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0002-9951-2446>

Annotatsiya. ushbu maqolada bugungi davrning dolzarb muammosiga aylangan ekologiya va “yashil” iqtisodiyot, “yashil” makon, “yashil” moliyalashtirish tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi korib chiqilgan. So‘nggi yillarda iqlim o‘zgarishi, ekologik inqiroz va tabiiy resurslarning cheklanganligi global moliyaviy tizim oldiga yangi muammolarni qo‘ymoqda. Ushbu muammolarni hal etish yo‘li sifatida “yashil” moliyalashtirish konsepsiyasi shakllanmoqda. Yashil moliyalashtirish barqaror iqtisodiy o‘sishni ekologik jihatdan xavfsiz tarzda ta‘minlashga qaratilgan moliyaviy strategiyalar yig‘indisidir.

Kalit so‘zlar: yashil iqtisodiyot, yashil moliyalashtirish, ekologiya, energiya, qayta tiklanadigan energiya, suv ta‘minoti, quyosh panellari va geliokollektorlar, ekologik muammolar.

Abstract. this article examines the interrelationship of the concepts of ecology and the "green" economy, "green" space, and "green" financing, which have become urgent problems of our time. In recent years, climate change, the ecological crisis, and the limitation of natural resources have posed new challenges to the global financial system. The concept of "green" financing is being formed as a way to solve these problems. Green financing is a set of financial strategies aimed at ensuring sustainable economic growth in an environmentally safe manner.

Key words: green economy, green financing, ecology, energy, renewable energy, water supply, solar panels and solar collectors, environmental problems.

Аннотация. В данной статье рассматривается взаимосвязь понятий экологии и «зеленой» экономики, «зеленого» пространства и «зеленого» финансирования, которые стали актуальными проблемами нашего времени. В последние годы изменение климата, экологический кризис и ограниченность природных ресурсов поставили перед глобальной финансовой системой новые вызовы. Концепция «зеленого» финансирования формируется как способ решения этих проблем. Зеленое финансирование — это комплекс финансовых стратегий, направленных на обеспечение устойчивого экономического роста экологически безопасным способом.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленое финансирование, экология, энергетика, возобновляемая энергия, водоснабжение, солнечные панели и солнечные коллекторы, экологические проблемы.

KIRISH

Zamonaviy dunyoda atrof-muhit buzilishi va iqlim o‘zgarishi muammolari dolzarb bo‘lib turibdi. Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun yirik investitsiyalar zarurligi qayd etilgan: masalan, Barqaror Taraqqiyot Tarmog‘i hisob-kitoblariga ko‘ra, SDG larni amalga oshirish uchun yillik 7 trln dollar kerak bo‘lsada, UNCTAD ma‘lumotlariga ko‘ra yillik taxminan 4 trln dollar mablag‘ yetishmayapti[1]. Shu munosabat bilan «yashil» moliyalashtirish yangi moliyaviy mexanizmlar to‘plami sifatida ko‘rilmoqda. Tadqiqotlarda ta‘kidlanishicha, yashil moliya ekologik loyihalarni moliyalashtirish orqali iqlim muammolarini hal etishda va barqaror taraqqiyotga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Xalqaro hamjamiyatda ham yashil moliya strukturasi muhimlashtirilgan: 2015-yili Parij bitimi doirasida deyarli 200 ta mamlakat yashil moliyalashtirishni kengaytirishga kelishib oldi va 2007-yildan buyon global yashil obligatsiyalar bozori 521 mlrd AQSh dollariga yetdi. Bu shuni ko‘rsatadiki, dunyo miqyosida “yashil” moliyalashtirish barqaror iqtisodiyot qurish yo‘lidagi asosiy vositalardan biriga aylangan.



Yashil moliyalashtirish barqaror rivojlanish va ekologik iqtisodiyot tamoyillari asosida shakllangan. Barqaror rivojlanish nazariyasi (Brundtland komissiyasi) bo'yicha taraqqiyot "hozirgi avlod ehtiyojlarini qondirar ekan, kelajak avlodning imkoniyatlarini cheklamaydi" deya ta'riflangan va bu iqtisodiy o'sish, ijtimoiy inklyuziya va atrof-muhitni muhofaza qilishni uyg'unlashtirishni ko'zlaydi[2]. Yashil moliya kontseptsiyasi barqaror rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi: iqtisodiy strategiyalarni yangi texnologiyalar va iqlimga mos texnologiyalar bilan uzviy bog'lashga tayanadi. Ekologik iqtisodiyot nazariyasi bo'yicha iqtisodiyot atrof-muhitning bir qismi sifatida qaraladi; bu nazariya chegaralangan resurslardan maqbul foydalanish va ekologik tashqi xarajatlarni hisobga olishni ta'kidlaydi. Masalan, ekologik toza iqtisodiyotga o'tish uchun kapital oqimlarini qayta tiklanuvchi sohalarga yo'naltirish, havoga chiqariladigan chiqindilarni kamaytirishga bosim o'tkazish zarur.

Zamonaviy O'zbekiston davlati iqtisodiy taraqqiyot va ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy o'sishga erishish va fuqarolarning turmush darajasini yaxshilashga intilayotgan bir paytda, atrof-muhit degradatsiyasi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish zaruratiga ham duch kelmoqda. Ushbu muammolarga javoban Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori asosida 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi tasdiqlandi[3] va "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi O'zbekistonda barqaror rivojlanishni rag'batlantirishning potentsial yechimi sifatida paydo bo'ldi. Yashil iqtisod inson farovonligi va ijtimoiy tenglikni yaxshilash, shu bilan birga ekologik xavf va ekologik tanqislikni sezilarli darajada kamaytirishga qaratilgan iqtisodiyot sifatida aniqlanadi. U barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslanadi, u iqtisodiy o'sishni atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy taraqqiyot bilan muvozanatlashtirishga intiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tishdagi muhim masalalardan biri ushbu jarayonni moliyalashtirish hisoblanadi. Iqtisodiy adabiyotda "yashil" yoki "ekologik" moliya atamasining umumqabul qilingan ta'riflari mavjud emas. Birinchidan, "yashil iqtisodiyot"ga oid aksariyat adabiyotlarda "yashil moliyalashtirish" tushunchasiga ta'rif berilmagan, ikkinchidan, mavjud kam sonli ta'riflar mazmunan bir-biridan keskin farq qiladi. Umumiy tarzda "yashil moliya"lar ("green finance") ekologik toza, energiya samaradorligi yuqori va past uglerodli loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan investitsiyalar va boshqa moliyaviy dastaklar yig'indisi sifatida tushunilishi mumkin. Aksariyat hollarda ekologik mas'uliyatli investitsiyalash ("environmentally responsible investment") va iqlim o'zgarishlari bilan bog'liq investitsiyalash ("climate change investment") kabi tushunchalar "yashil moliya" tushunchasining sinonimi sifatida ishlatiladi.

"Yashil moliya"lar atamasi ilk bor taniqli iqtisodchi olim Richard Sandor tomonidan 1992-yilda Nyu-Yorkdagi Kolumbiya universitetida ishlab chiqilgan maxsus o'quv dasturida qo'llanilgan[4]. 2002-yilda Stenford universiteti professori Gletchen Deyl tomonidan nashr etilgan "Yangi tabiat iqtisodiyoti" kitobida tabiiy resurslarni muhofaza qilishni moliyalashtirish masalalari ko'rib chiqilgan[5].

Karl Burkart esa "yashil iqtisodiyotni" tarmoq nuqtai nazaridan ko'rib chiqib, uni quyidagi tarmoqlarga ajratadi[6]: tiklanadigan energiya manbalari (quyosh, shamol, bioyoqilg'i va h.k.); "yashil" binolar (qurilish va arxitekturada resurs va energiya tejovchi texnologiyalarni qo'llash); ekologik toza transport (muqobil yoqilg'i turlari, jamoat transportini rivojlantirish, gibridd/elektr avtomobillari, karshering va karpuling); suv resurslaridan foydalanishni boshqarish (suvni tozalash va qayta foydalanish, suv sarfini kamaytirish, yomg'ir suvlaridan foydalanish); xo'jalik va ishlab chiqarish chiqindilari utilizatsiyasi (chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya talab etmaydigan tara va qadoqlardan foydalanish); yer holatini yaxshilash (shahar hududlarida parklar va kichik o'rmonlar barpo etish, organik qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, o'rmonlar va daraxtzorlarni tiklash, tuproq unumdorligini oshirish). Karl Burkart fikriga ko'ra, "yashil iqtisodiyot"ning har bir tarmog'i turli rivojlanish bosqichida bo'ladi va shuning uchun ularni moliyalashtirish usullari va manbalari bir-biridan farqlanadi. "Yashil iqtisodiyot" sohasida turli tadqiqotlar olib boruvchi xususiy kompaniyalar "yashil moliyalashtirish" tushunchasining mohiyatini ochib berishga harakat qilishgan. Masalan, Bloomberg New Energy Finance kompaniyasi mutaxassislari "yashil moliya"lar "yashil investitsiyalar" bilan bir qatorda qo'llanilishini, ammo amaliyotda "yashil moliyalashtirish" investitsiyalarga nisbatan kengroq tushuncha sifatida ishlatilishini ta'kidlaydi. Pricewaterhouse Coopers Consultants konsalting kompaniyasi mutaxassislari esa "yashil moliyalashtirish"ni bank sektori nuqtai nazaridan tavsiflaydi. Ularning fikricha, bank sohasi uchun "yashil moliyalashtirish" ekologik omillarni hisobga oluvchi moliyaviy mahsulot bo'lib, ushbu tamoyil kredit berish jarayonidan boshlab kredit yopilish oralig'idagi barcha bosqichlarda amal qiladi.

Xalqaro moliya korporatsiyasi mutaxassislari esa "yashil moliyalashtirish – barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga yo'naltirilgan moliyaviy qo'yilmalar, loyihalar va investitsiyalarni ifodalovchi keng tushuncha bo'lib, ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish orqali barqaror iqtisodiy rivojlanish darajasini oshirishni nazarda tutadi", deb hisoblaydi. Ularning fikricha, "yashil moliyalashtirish" atrof-muhitga sanoat chiqindilarini chiqarish hajmini qisqartirish, suv resurslari ifloslanishining oldini olish va bioxilma-xillikni saqlab qolishga



qaratilgan loyihalarni moliyalashtirish bilan birgalikda iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish va unga moslashish jarayonlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni qamrab oladi[6]. Iqtisodiy adabiyotdagi ta'riflarni quyidagicha guruhlash mumkin: birinchi guruhda atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq texnologik jarayonlar, loyihalar va dasturlarni moliyalashtirishning keng qamrovli usullari "yashil" moliya sifatida talqin etiladi. Ikkinchi guruhda esa "yashil moliya" ekologik tarkibiy elementga ega bo'lgan moliyaviy mahsulotlar (kreditlar, obligatsiyalar, aksiyalar va boshqalar) sifatida tushuntiriladi. Demak, "yashil moliyalashtirish" atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi barcha omillarni hisobga oluvchi va ekologik barqarorlikni ta'minlashni nazarda tutuvchi investitsiyalash va kreditlashning barcha shakllarini qamrab oladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda yashil iqtisodiyotni moliyalashtirish va takomillashtirish bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish uchun hujjatlar tahlili, statistik ko'rsatkichlar o'rganish hamda ekspert intervyulari usullari qo'llanildi. Hujjatlar tahlili orqali qonunchilik bazasi va moliyaviy mexanizmlar tahlil qilindi, statistik ma'lumotlar iqtisodiy tendensiyalarni aniqlashga yordam berdi, intervyular esa ekspertlarning fikrlarini umumlashtirish imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston sharoitida yashil iqtisodiyotni rivojlantirish mamlakatning ekologik muammolarini hal etish va uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'zbekiston oldida turgan asosiy muammolardan biri tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning degradatsiyasidir. Mamlakatning tabiiy resurslarni qazib olish va intensiv dehqonchilik amaliyotiga tayanishi suv resurslarining kamayishiga, tuproq eroziyasiga, havo va suvning ifloslanishiga olib keldi. Ushbu ekologik muammolar nafaqat inson salomatligi va farovonligiga tahdid soladi, balki mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli barqarorligiga ham putur yetkazadi.

Ekologik muammolardan tashqari, O'zbekiston iqlim o'zgarishi ta'siriga ham zaifdir. Mamlakatda harorat va yog'ingarchilik darajasida o'zgarishlar allaqachon kuzatilmoqda, bu esa qishloq xo'jaligi hosildorligiga, suv bilan ta'minlanishiga va tabiiy ofatlar chastotasiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu iqlim bilan bog'liq ta'sirlar mamlakat iqtisodiyoti va oziq-ovqat xavfsizligi uchun jiddiy xavf tug'diradi va ularning oqibatlarini yumshatish va moslashish uchun shoshilinch choralar ko'rishni talab qiladi. Ushbu muammolarga javoban O'zbekiston barqaror rivojlanishga ko'maklashish hamda atrof-muhit va iqlim bilan bog'liq xavflarni bartaraf etish maqsadida yashil iqtisodiyotga o'tish zarurligini tan oldi. Hukumat yashil iqtisodiyotni rivojlantirishga ko'maklashish, jumladan, atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishga ustuvor ahamiyat beruvchi milliy strategiya va siyosatlarni qabul qilish bo'yicha bir qancha choralar ko'rdi.

O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy tendensiyalaridan biri bu qayta tiklanuvchi energiya manbalari va energiya samaradorligini oshirishdir. Mamlakat quyosh, shamol va gidroenergetika kabi qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish uchun muayyan salohiyatga ega, bu esa mamlakatning qazib olinadigan yoqilg'iga bog'liqligini kamaytirish va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirishga yordam beradi. Hukumat qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalarini joriy etish va iqtisodiyotning turli tarmoqlarida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini joriy qildi. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishning yana bir muhim tendensiyasi qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslarni barqaror boshqarishga ko'maklashishdir. Mamlakatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqarorligini oshirish va atrof-muhit degradatsiyasini kamaytirish maqsadida suv resurslaridan foydalanishni takomillashtirish, tuproqni saqlash va bioxilma-xillikni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu sa'y-harakatlar yerdan barqaror foydalanish amaliyotini ilgari surish va intensiv qishloq xo'jaligining atrof muhitga salbiy ta'sirini kamaytirishga qaratilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston iqtisodiy o'sish va ekologik barqarorlikni ta'minlash vositasi sifatida yashil innovatsiyalar va texnologiyalar transferini rag'batlantirishga ham e'tibor qaratmoqda. Mamlakat innovatsiyalarni rag'batlantirish va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va ish o'rinlarini yaratish uchun yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida toza energiya, barqaror qishloq xo'jaligi va chiqindilarni boshqarish kabi yashil texnologiyalar sohasidagi tadqiqot va ishlanmalarga sarmoya kiritmoqda. 2023 yilning 17-may sanasida Samarqand shahrida Yevropa Ittifoqi, Fransiya taraqqiyot agentligi (FTA) va O'zbekiston hukumati o'rtasida O'zbekistonning 2030-yilga kelib yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasini qo'llab-quvvatlash va moliyalashtirishga qaratilgan bitim imzolandi. Mamlakatimizda iqtisodiy taraqqiyot va kambag'alikni qisqartirish vazirligi yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va yashil o'sish tamoyillarini joriy etish, shuningdek, issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirish borasida vakolatli organ etib belgilangan. Energetika vazirligi "yashil" energetikani rivojlantirish, xususan, qayta tiklanadigan energiya manbalari va vodorod energiyasini keng joriy etish, shuningdek, energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning energiya sig'imini kamaytirish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi. 2023-yil



1-iyundan boshlab ishlab chiqarish jarayonida atrof-muhit va atrof muhitga ta'sirni cheklash talablaridan kelib chiqqan holda "yashil sertifikatlar" tizimi joriy etiladi[7]. 2022–2026-yillarda issiqxona gazlari chiqindilarini davlat tomonidan tartibga solish infratuzilmasi bosqichma-bosqich yaratiladi, bunda quyidagilar nazarda tutiladi:

- issiqxona gazlari chiqindilarini davlat tomonidan hisobga olish va ularning davlat kadastrini yuritish;
- iqtisodiyot tarmoqlarida issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish maqsadlarini belgilash;
- issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash.

Hozirgi ekologik muammolar sharoitida birinchidan, O'zbekiston duch kelayotgan ekologik muammolarni tushunish zarur. Mamlakat resurslarni samarasiz boshqarish va ifloslantiruvchi sanoat tufayli atrof-muhitning sezilarli darajada degradatsiyasini boshdan kechirdi. Havo va suvning ifloslanishi, o'rmonlarning kesilishi, tuproq eroziyasi kabi muammolar dolzarb masalalarga aylanib, zudlik bilan chora ko'rishni taqozo etmoqda. Ikkinchidan, o'rmonlarning keskin kesilishi tuproq eroziyasi va yashash joylarining buzilishi cho'llanishga olib keladi va keng maydonlar hamda boy o'rmon resurslarini sezilarli darajada yo'qotilishiga olib kelmoqda. Bundan tashqari tartibga solinmagan ov va brakonerlik noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlarga xavf tug'diradi va yashash joylarining buzilishi bioxilma-xillikning kamayishini yanada kuchaytiradi.

Sanoat chiqindilari, eskirgan texnologiyalar va qazib olinadigan yoqilg'iga bog'liqlik O'zbekiston havosining ifloslanishiga asosiy sabab bo'lmoqda. Bu, ayniqsa, shaharlarda sog'liq uchun jiddiy xavf tug'diradi, nafas olish va yurak-qon tomir kasalliklariga olib keladi. O'zbekiston sug'orish va ichimlik maqsadlarida Amudaryo va Sirdaryo suvlariga ko'p tayanadi. Suv resurslaridan haddan tashqari ko'p foydalanish va noto'g'ri foydalanish daryolarning qurib ketishiga shu bilan suv tanqisligiga olib kela boshladi. O'zbekiston havo haroratining oshishi, ekstremal ob-havo hodisalari va yog'ingarchilikning kamayishi kabi iqlim o'zgarishi ta'siriga juda zaif. Bu o'zgarishlar qishloq xo'jaligi, suv bilan ta'minlanganlik, inson salomatligi va umumiy iqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiladi. Ushbu ekologik muammolarni hal qilish uchun O'zbekiston quyidagilarga e'tibor qaratgan holda barqaror tashabbus va siyosatni amalga oshirishi kerak:

Ekologik qonun-qoidalarni mustahkamlash:

–o'rmonlarning kesilishining oldini olish va ifloslanishga qarshi kurashish uchun qattiqroq qonun va qoidalarni joriy etish;

–noqonuniy ov va hayvonot dunyosi savdosi uchun jazo choralarini qo'llash;

–organik dehqonchilik texnikasidan foydalanishni rag'batlantirish va kimyoviy pestitsidlarga bog'liqlikni kamaytirish;

–suv tanqisligini kamaytirish uchun suvni tejaydigan sug'orish tizimlarini joriy etish;

–chiqindilarni samarali boshqarishni amalga oshirish uchun shahar va qishloq joylarda qayta ishlash dasturlari va chiqindilarni ajratish tashabbuslarini yaratish;

–chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash bo'yicha sa'y-harakatlarda jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirish;

–qayta tiklanadigan energiya manbalarini kengaytirish va havo ifloslanishini kamaytirish uchun qayta tiklanadigan energiya infratuzilmasiga sarmoya kiritish;

–tutar-joy va sanoat tarmoqlarida quyosh va shamol energiyasidan foydalanishni rivojlantirish.

Ushbu chora-tadbirlarga ustuvor ahamiyat berish va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali O'zbekiston o'zining ekologik holatini yaxshilashi, tabiiy resurslarini asrab-avaylashi va o'z fuqarolarining farovonligini kelajak avlodlar uchun asrashi mumkin. 2020-yilda Jahon banki 30 dan ortiq mamlakatlardagi iqlim bo'yicha normativ huquqiy hujjatlarining tahliliga asoslangan 12 bo'limdan iborat bo'lgan Iqlim o'zgarishi sohasidagi asos qonunchilik bo'yicha qo'llanma nashr etdi. Ushbu qo'llanma xalqaro vositalar to'plami va resurs materiallari bilan bir qatorda O'zbekiston uchun iqlim o'zgarishi bo'yicha o'z qonunchiligini ishlab chiqish jarayonida foydali bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda, hukumat va korxonalar darajasida ichimlik suvi va oqova suv xizmatlarini kengaytirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, 2017–2023 yillarda jami 5 870 ta suv va sanitariya obyekti qurilgan yoki rekonstruksiya qilingan, 31837,5 km ichimlik va oqova tarmoqlari tortilib, 11,8 million aholining ichimlik suv bilan ta'minlanishi yaxshilangan, va 6,6 million fuqaroga birinchi marta markazlashgan ichimlik suvi yetkazilgan.


2024-yilda ham "O'zsuvta'minot AJ" tomonidan 454 ta infratuzilma loyihasi amalga oshirilgan, ular doirasida 1817 km ichimlik suv, 294 km kanalizatsiya tarmoqlari tortilgan, 243 ta suv/oqova suv obyekti qurilgan yoki rekonstruksiya qilingan. Natijada 2024-yilda aholining markazlashgan ichimlik suv bilan ta'minlanish darajasi 77.4 % dan 80.9 % ga ko'tarilgan.

2025-yil iyul oyidagi statistik ma'lumotlarga ko'ra, mamlakat bo'yicha markazlashgan ichimlik suvi bilan ta'minlangan aholi ulushi 81.5 % ga yetgan.

Shu bilan birga, hududlar bo'yicha ta'minot darajasi ixtilofli bo'lib qolmoqda: masalan, 2025-yilda Toshkent shahri 98.4 %, Qashqadaryo viloyati esa atigi 61.2 % ko'rsatkich bilan eng pastda ekani ma'lum qilingan.



Hududlar bo'yicha ko'rsatkichlar gistogrammasi



1-rasm. Hududlarning 2025-yil holati bo'yicha ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasi 1

Gistogramma tahlili shuni ko'rsatadiki, hududlar kesimida ko'rsatkichlar darajasi bir xil emas bo'lib, ular o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud. Eng yuqori natija Toshkent shahriga to'g'ri kelib, mazkur hududda ko'rsatkich 98,4 foizni tashkil etadi. Bu holat poytaxtda infratuzilmaning rivojlanganligi, texnologik yangilanish darajasi va investitsiyaviy faollikning yuqoriligi bilan izohlanadi. Shuningdek, Andijon (92 foiz) va Xorazm (91,6 foiz) viloyatlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etilgan bo'lib, bu hududlarda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar samaradorligini aks ettiradi.

O'rtacha yuqori ko'rsatkichlar guruhi tarkibiga Namangan (87 foiz), Sirdaryo (87,7 foiz), Navoiy (85,8 foiz), Farg'ona (82,5 foiz) hamda Toshkent viloyati (79,9 foiz) kiradi. Ushbu hududlarda ko'rsatkichlarning barqaror darajada shakllanishi mavjud ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilma obyektlarida modernizatsiya jarayonlarining izchil olib borilayotganligini ko'rsatadi. Ayniqsa, energiya samarador texnologiyalarni joriy etish va resurslardan oqilona foydalanish ushbu natijalarning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Nisbatan past ko'rsatkichlar Samarqand (78,6 foiz), Jizzax (75,3 foiz), Buxoro (74,3 foiz), Qoraqalpog'iston Respublikasi (74,2 foiz) va Surxondaryo (66,5 foiz) hududlarida kuzatilmoqda. Eng past natija esa Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri kelib, bu yerda ko'rsatkich 61,2 foizni tashkil etadi. Mazkur holat ushbu hududlarda mavjud texnik infratuzilmaning eskirganligi, moliyaviy resurslarning cheklanganligi hamda investitsiya faolligining nisbatan pastligi bilan izohlanishi mumkin.

Umuman olganda, gistogramma natijalari hududlar o'rtasida rivojlanish darajasi bir maromda emasligini ko'rsatib, past ko'rsatkichga ega hududlarda maqsadli dasturlarni kuchaytirish, investitsiyalarni jalb etish hamda energiya tejamkor va innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini asoslab beradi. Ushbu farqlarni qisqartirish barqaror hududiy rivojlanishni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar Ushbu tadqiqot ishida jahon va milliy tajriba asosida "yashil" moliyalashtirishning nazariy asoslari, amaliy mexanizmlari hamda O'zbekiston iqtisodiyotida uni rivojlantirish yo'nalishlari kompleks tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, iqlim o'zgarishi, resurslar tanqisligi va ekologik bosimning kuchayishi sharoitida iqtisodiy o'sishni an'anaviy moliyalashtirish modellari o'z samaradorligini yo'qotib bormoqda va bu holat "yashil" moliyalashtirishga o'tishni muqobil emas, balki zarur strategik tanlovga aylantirmoqda.

Tadqiqotda aniqlanishicha, jahon amaliyotida "yashil" moliyalashtirish yashil obligatsiyalar, ekologik kreditlash, davlat-xususiy sheriklik va xalqaro moliyaviy institutlar ishtiroki orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Ushbu mexanizmlar nafaqat ekologik loyihalarni moliyalashtirishga, balki uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Biroq bu mexanizmlarning yuqori samaradorligi kuchli institutsional muhit, aniq tasniflash mezonlari va shaffof monitoring tizimlari bilan bevosita bog'liq ekanligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida qayta tiklanuvchi energiya, suv ta'minoti va energiya samaradorligi sohalari O'zbekiston uchun "yashil" moliyalashtirishni joriy etishda eng yuqori iqtisodiy va ekologik samaraga ega yo'nalishlar ekanligi asoslab berildi. Aynan ushbu sohalarda moliyaviy resurslarni maqsadli va kompleks yo'naltirish orqali ekologik

1 Internet ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi



barqarorlikni ta'minlash bilan birga, iqtisodiy o'sishning sifat jihatdan yangi modeliga o'tish imkoniyati mavjudligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Umuman olganda, xulosalar va tavsiyalar O'zbekistonda "yashil" moliyalashtirish tizimini takomillashtirish, ekologik va iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash hamda 2030-yilgacha belgilangan barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Green finance development and its origin, motives, and barriers: an exploratory study. Die Hu, Christopher Gan. Environment, Development and Sustainability.
2. eur-lex.europa.eu
3. 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori asosida 2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasi.
4. Richard L. Sandor. Good Derivatives: A Story of Financial and Environmental Innovation. John Wiley & Sons, 2012-yil fevral.
5. Gretchen Daily, Katherine Ellison. The New Economy of Nature: The Quest to Make Conservation Profitable. Island Press, 2002.
6. Burkart, K. "How do you define the 'green' economy?" <http://www.mnn.com/green-tech/research-innovations/blogs/how-do-you-define-the-green-economy>.
7. 2030 yilgacha O'zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida: 2022 yil 2 dekabr PQ-436-son qarori. www.lex.uz



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>